
BESHKAPANING MING METRLIK ICHKI YO'LLARI RAVON BO'LDI

O'zbekiston tumanidagi qishloq va mahallalar infratuzilmasi bilan bog'liq eng dolzarb masalalarni tizimli hal etish, ijtimoiy soha va boshqa infratuzilma ob'ektlarini yaxshilashga qaratilgan manzilli tadbirlar qizg'in davom etmoqda.

Bu borada, davlatimiz rahbarining 2022 yil 25 oktyabrdagi "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilangan amaliy tadbirlar natijasida mahalla va go'shalar ko'rkam qiyofa kasb etmoqda.

Xususan, ayni qaror asosida tuman aholisining 2270 nafardan ziyod qismi yashovchi "Beshkapa" mahallasining 1000 metr ichki yo'llariga asfalt yotqizilib, ravon va soz holatga keltirildi.

O'zbekiston tumani hokimligi axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2023-03-09 11:09:42